

ENG KATTA O‘ZBEK KINOSTUDIYASI

Temirova Sarbina-Bonu

Mirsoliyeva Durdona

O‘zbekiston Davlat San‘at va Madaniyat Instituti

Farg‘ona mintaqaviy filiali Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: "O‘zbekfilm" bu - eng eski va eng katta badiiy filmlar ishlab chiqaruvchi o‘zbek kinostudiyasidir. Quyida aynan shu kinostudiyaning paydo bo‘lishi, uning tarixi, tarixda sur‘atga olingan filmlar, aktyorlar vahokazolar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ortiq, qisqa, xronikal, metrajli, asosan, filmlar, evakuatsiya, jahon, ikkinchi, an‘analaridan, rejissorlar, milliy, nomlangan, studiya, mashhur, o‘zbek, yana, mustaqillikdan, qahramonlari, uslubida, hamkorlik.

„O‘zbekfilm“ — eng eski va eng katta badiiy filmlar ishlab chiqaruvchi o‘zbek kinostudiyasi. Studiyaga 1925-yil asos solingan. Uning ilk nomi „Sharq yulduzi“ bo‘lgan.[1] 1936-yil „O‘zbekfilm“ deb nomlangan. Ikkinchi jahon urushi yillarida studiya „Toshkent Kino Studiyasi“ deb nomlangan. 1958-yil nomi yana qaytadan „O‘zbekfilm“ deb o‘zgartirilgan. Kino studiya shu kungacha 400 dan ortiq to‘la metrajli va 100 dan oshiq multiplikatsiya qilingan film chiqargan.[2] „O‘zbekfilm“ kinostudiyasi ishlab chiqargan mashhur filmlar qatoriga „Maftuningman“ (1958) va „Mahallada duv-duv gap“ (1960) filmlarini kiritish mumkin.

O‘zbekfilm „O‘zbekkino“ milliy agentligi tizimidadir. Dastlab 1925-yil 4-iyunda Toshkentda „Sharq yulduzi“ nomi bilan kinostudiya tashkil bo‘lgan. Shayxontohurdagi Eshonqul madrasasi binosiga joylashgan. 20-yillarda „Ikkinchi xotin“, „Masjid gumbazlari ostida“, „Soyabon arava“, „Ravot qashqirlari“, „Chodira“ kabi filmlar ishlangan. 1925-26-yillar mobaynida 20 dan ortiq to‘la, 30 dan ortiq qisqa metrajli xronikal filmlar yaratilgan.

1930-yillarTahrirlash

1932-yil „Sharq yulduzi“ „O‘zbekfilm“ nomini oladi. 1930-yil gacha filmlarni, asosan, o‘zbek xalqining milliy an‘analaridan yiroq rus rejissorlari ishlagan. 30-yillardan Nabi G‘aniyev mustaqil filmlar yarata boshlagan: „Yuksalish“, „Ramazon“, Sulaymon Xo‘jayev „Tong oldidan“, Yo‘ldosh A‘zamov „Qilich“ filmlarini ishladilar. Ular bilan yonmayon O. Frelix („Avliyo qizi“), N. Klado („Bag‘dodda „amerika“ paxtasi“, „O‘lim qudug‘i“) lar ham faoliyat yuritgan. 1939-yil kinostudiyaga „Toshkent kinostudiyasi“ nomi berildi. Ikkinchi jahon urushi yillari

Toshkentga evakuatsiya qilingan Ukraina, Belarus kinostudiyalari, „Mosfilm“, „Lenfilm“larning kelishi munosabati bilan „Birlashgan Toshkent kinostudiyasi“ (titrda „Toshkent kinostudiyasi“ deb yozilgan) nomi bilan yuritilgan. „Biz yengamiz“ (rejissor K. Yormatov, N. G‘aniyev), „Dovyurak do‘stlar“ (N. G‘aniyev), „Filmkonsert“ (Y. A‘zamov), „Frontdagi do‘stlarga“ (K. Yormatov), „Besh respublika konserti“ (Z. Sobitov), „Aleksandr Parxomenko“, „Ikki jangchi“ (L. Lukov), „Nasriddin Buxoroda“ (Ya. Protazanov), „Uning ismi Suxe Bator“ (A. Zarxi, I. Xeyfits) kabi filmlar ishlandi.

1940-yillarTahrirlash

Urushdan keyingi yillar ekranga o‘zbek xalqi madaniyatining yutug‘i bo‘lgan mumtoz „Tohir va Zuhra“ (1945), „Nasriddinning sarguzashtlari“ (1946, ikkalasining rejissori N. G‘aniyev), „Alisher Navoiy“ (1947, K. Yormatov) filmlari ekranga chiqsi. 1947-52-yillar SSSR kinematografiyasi vazirligi buyrug‘iga binoan, birorta ham film ishlanmagan. Tanaffusdan so‘ng ishlangan film „Paxtaoy“ (K. Yormatov) bo‘ldi.

1950-yillarTahrirlash

"Boy ila xizmatchi", „Qutlug‘ qon“ (L. Fayziyev), „Opasingil Rahmonovalar“, „Abu Ali ibn Sino“ (K. Yormatov), „Gulbahor“ (Y. A‘zamov), „Stadionda uchrashamiz“ (Z. Sobitov) singari filmlar 50-yillar yaratildi. 1955-yil „Amirlikning yemirilishi“ nomli birinchi rangli badiiy film (rejissorlar L. Fayziyev, V. Basov) ekranga chiqdi. 1958-yildan O‘zbekfilm yana hozirgi nomda. 1959-yilda Chilonzorda qurilgan yangi binoga ko‘chib o‘tgan.

1960-yillarTahrirlash

60-yillar kinostudiyada mavzu jihatdan boy, badiiy yo‘nalishi ravon, asosiy qahramoni yoshlar bo‘lgan filmlar ustunlik qildi. „Mahallada duv-duv gap“ (Shuhrat Abbosov), „Sinchalak“ (L. Fayziyev), „Laylak keldi, yoz bo‘ldi“ (Ali Hamroyev), „Surayyo“ (U. Nazarov), „Nafosat“, „Sevishganlar“ (E. Eshmuhamedov), „Sen yetim emassan“, „Toshkent — non shahri“ (Sh. Abbosov), „26 otilmasin“, „41-yil olmalari“ (R. Botirov), „General Rahimov“ (Z. Sobitov), „Oy borib, omon qayt“ (H. Fayziyev), „Nodirabegim“ (K. Yormatov), „Ulug‘bek yulduzi“ (L. Fayziyev), „Abu Rayhon Beruniy“ (Sh. Abbosov), „O‘tgan kunlar“ (Y. A‘zamov) va boshqalar shular jumlasidan. Kishilar xarakteri va o‘zaro munosabatlar, turmush tarzi va mehnatini ko‘rsatuvchi filmlar yaratish kinostudiya ijodkorlari oldidagi asosiy vazifaga aylandi va uning natijasi o‘laroq „Seni kutamiz, yigit“ (R. Botirov), „Umidimiz qushlari“, „Dahoning yoshligi“ (E. Eshmuhamedov), „Nodirabegim“ (K. Yormatov), „Shum bola“ (D. Salimov), „Mevazorlik ayol“ (A. Hamroyev) va boshqalar filmlar ekranga chikdi.

1980-yillarTahrirlash

80-yillarning oxiri, „qayta qurish“ yillari „O‘zbekfilm“da yangi avlod rejissorlari ish boshladi: R. Malikov, A. Fatxullin, S. Nazarmuhamedov, Z. Musoqov, D.

Davlatov, I. Ergashev va boshqalar shular jumlasidan.

„Alvido, g‘o‘r yoshligim“ (E. Eshmuhamedov), „Klinika“ (R. Malikov), „Bo‘rilar“ (S. Nazarmuhamedov), „Siz kimsiz?“ (J. Fayziyev), „Soldat ertagi“ (Z. Musoqov), shaxsga sig‘inish sharoitidagi qahramonlar hayoti aks etgan „Tosh sanam“ (I. Ergashev), „Yovvoyi“ (Q. Kamolova) hamda hamkorlikda ishlangan „Muhabbat va nafrat“ (R. Botirov, J. Ristich), „Alibobo va qirq qaroqchi“, „Sevgi afsonasi“ (L. Fayziyev, U. Mehra) kabi filmlar suratga olindi.

Mustaqillikdan so‘ng „O‘zbekfilm“ning yangi tarixi boshlandi. Film mazmuni, qahramonlari va uslubida milliylik kuchaydi. „Voiz“ (Yu. Roziqov), „Yolg‘iz yodgorim“ (S. Nazarmuhamedov), „Chimildiq“ (M. Abzalov), „Dilxiroj“, „O‘rtoq Boykenjayev“ (Yu. Roziqov), „Yodgor“ (X. Nasimov), „Qor ustidagi lola“ (E. To‘ychiyev, A. Shaxobiddinov) va boshqalar bunga misoldir. „Alpomish“ (H. Fayziyev), „Osmondagi bolalar“, „Osmondagi bolalar-2“ (Z. Musoqov), „Dev bilan pakana“ (J. Qosimov), „Fellini“ (N. Abbosov), „Qismat“ (A. Akbarxo‘jayev, A. Ismoilov), „Maqsad“ (R. Meliyev), „Men Terrorchi Emasman“ (Muhammad Ali Iskandarov) va boshqalar keyingi yillar mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)
4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usmanova)

Foydalanilgan web-saytlar:

1. Tafakkur.net sayti
2. Ziyouz.com sayti
3. Qomus.info sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Shosh.uz sayti
6. Vikipediya
7. Yoair.com sayti